

SCIENCE
PROBLEMS.UZ

ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari

Son 11 Jild 4

2024

SCIENCEPROBLEMS.UZ

**ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ
ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ**

№ 11 (4) - 2024

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

ТОШКЕНТ-2024

БОШ МУҲАРРИР:

Исанова Феруза Тулқиновна

ТАҲРИР ҲАЙЪАТИ:

07.00.00-ТАРИХ ФАНЛАРИ:

Юлдашев Анвар Эргашевич – тарих фанлари доктори, сиёсий фанлар номзоди, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Мавланов Уктам Махмасабирович – тарих фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Хазраткулов Абдор – тарих фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети.

Турсунов Равшан Нормуратович – тарих фанлари доктори, Ўзбекистон Миллий Университети;

Холикулов Ахмаджон Боймаҳамматович – тарих фанлари доктори, Ўзбекистон Миллий Университети;

Габриэльян Софья Ивановна – тарих фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон Миллий Университети.

Саидов Сарвар Атабулло ўғли – катта илмий ходим, Имом Термизий халқаро илмий-тадқиқот маркази, илмий тадқиқотлар бўлими.

08.00.00-ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ:

Карлибаева Рая Хожабаевна – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Насирходжаева Дилафруз Сабитхановна – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Остонокулов Азамат Абдукаримович – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент молия институти;

Арабов Нурали Уралович – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Худойқулов Садирдин Каримович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Азизов Шерзод Ўктамович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Божхона институти;

Хожаев Азизхон Саидалохонович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Фарғона политехника институти

Холов Актам Хатамович – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Шадиева Дилдора Хамидовна – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент в.б, Тошкент молия институти;

Шакарров Қулмат Аширович – иқтисодиёт фанлари номзоди, доцент, Тошкент ахборот технологиялари университети

09.00.00-ФАЛСАФА ФАНЛАРИ:

Ҳакимов Назар Ҳакимович – фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Яхшиликков Жўрабой – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Ғайбуллаев Отабек Мухаммадиевич – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат чет тиллар институти;

Саидова Камола Усканбаевна – фалсафа фанлари доктори, “Tashkent International University of Education” халқаро университети;

Ҳошимхонов Мўмин – фалсафа фанлари доктори, доцент, Жиззах педагогика институти;

Ўроқова Ойсулов Жамолиддиновна – фалсафа фанлари доктори, доцент, Андижон давлат тиббиёт институти, Ижтимоий-гуманитар фанлар кафедраси мудири;

Носирходжаева Гулнора Абдукаҳхаровна – фалсафа фанлари номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Турдиев Бехруз Собирович – фалсафа фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Бухоро давлат университети.

10.00.00-ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Ахмедов Ойбек Сапорбаевич – филология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Кўчимов Шухрат Норқизилевич – филология фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳасанов Шавкат Аҳадович – филология фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Бахронова Дилрабо Келдиёровна – филология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Мирсанов Ғайбулло Қулмуродович – филология фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат чет тиллар институти;

Салахутдинова Мушарраф Исамутдиновна – филология фанлари номзоди, доцент, Самарқанд давлат университети;

Кучкаров Раҳман Урманович – филология фанлари номзоди, доцент в/б, Тошкент давлат юридик университети;

Юнусов Мансур Абдуллаевич – филология фанлари номзоди, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Саидов Улугбек Арипович – филология фанлари номзоди, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси.

12.00.00-ЮРИДИК ФАНЛАР:

Аҳмедшаева Мавлюда Ахатовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Мухитдинова Фирюза Абдурашидовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Эсанова Замира Нормуротовна – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикасида хизмат кўрсатган юрист, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳамроқулов Баҳодир Мамашарифович – юридик фанлар доктори, профессор в.б., Жаҳон иқтисодиёти ва дипломатия университети;

Зулфиқоров Шерзод Хуррамович – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Жамоат ҳавфсизлиги университети;

Хайитов Хушвақт Сапарбаевич – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Асадов Шавкат Ғайбуллаевич – юридик фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Эргашев Икром Абдурасулович – юридик фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Утемуратов Махмут Ажимуратович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Сайдуллаев Шахзод Алиханович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳакимов Комил Бахтиярович – юридик фанлар доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Юсупов Сардорбек Баходирович – юридик фанлар доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Амиров Зафар Актамович – юридик фанлар бўйича фалсафа доктори (PhD), Ўзбекистон Республикаси Судьялар олий кенгаши ҳузуридаги Судьялар олий мактаби;

Жўраев Шерзод Юлдашевич – юридик фанлар номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Бабаджанов Атабек Давронбекович – юридик фанлар номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Раҳматов Элёр Жумабоевич – юридик фанлар номзоди, Тошкент давлат юридик университети;

13.00.00-ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ:

Ҳашимова Дильдархон Уринбоевна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Ибрагимова Гулнора Хавазматовна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Закирова Феруза Махмудовна – педагогика фанлари доктори, Тошкент ахборот технологиялари университети ҳузуридаги педагогик кадрларни қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш тармоқ маркази;

Каюмова Насиба Ашуровна – педагогика фанлари доктори, профессор, Қарши давлат университети;

Тайланова Шохид Зайниевна – педагогика фанлари доктори, доцент;

Жуманиёзова Муҳайё Тожиевна – педагогика фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Ибрахимов Санжар Урунбаевич – педагогика фанлари доктори, Иқтисодиёт ва педагогика университети;

Жавлиева Шахноза Баходировна – педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), Самарқанд давлат университети;

Бобомуротова Латофат Элмуродовна – педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), Самарқанд давлат университети.

19.00.00-ПСИХОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Каримова Василя Маманосировна – психология фанлари доктори, профессор, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Ҳайитов Ойбек Эшбоевич – Жисмоний тарбия ва спорт бўйича мутахассисларни қайта тайёрлаш ва малакасини ошириш институти, психология фанлари доктори, профессор

Умарова Навбахор Шокировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети, Амалий психологияси кафедраси мудири;

Атабаева Наргис Батировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Шамшетова Анжим Караматдиновна – психология фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Қодиров Обид Сафарович – психология фанлари доктори (PhD), Самарканд вилоят ИИБ Тиббиёт бўлими психологик хизмат бошлиғи.

22.00.00-СОЦИОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Латипова Нодира Мухтаржановна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири;

Сеитов Азамат Пулатович – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети;

Содиқова Шоҳида Мархабобовна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон халқаро ислом академияси.

23.00.00-СИЁСИЙ ФАНЛАР

Назаров Насриддин Атакулович – сиёсий фанлар доктори, фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент архитектура қурилиш институти;

Бўтаев Усмонжон Хайруллаевич – сиёсий фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири.

ОАК Рўйхати

Мазкур журнал Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Олий аттестация комиссияси Раёсатининг 2022 йил 30 ноябрдаги 327/5-сон қарори билан тарих, иқтисодиёт, фалсафа, филология, юридик ва педагогика фанлари бўйича илмий даражалар бўйича диссертациялар асосий натижаларини чоп этиш тавсия этилган илмий нашрлар рўйхатига киритилган.

Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари” электрон журнали 2020 йил 6 август куни 1368-сонли гувоҳнома билан давлат рўйхатига олинган.

Муассис: “SCIENCEPROBLEMS TEAM” масъулияти чекланган жамияти

Таҳририят манзили:

100070. Тошкент шаҳри, Яккасарой тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-уй. Электрон манзил:
scienceproblems.uz@gmail.com

Боғланиш учун телефонлар:

(99) 602-09-84 (telegram).

MUNDARIJA

07.00.00 – TARIX FANLARI

<i>Лутфиллаев Ҳамидилло Муродиллаевич</i> “ЖАВОҲИР АТ-ТАФСИР ЛИ ТУҲФАТ АЛ-АМИР” АСАРИНИНГ МАЗМУНИ ВА ТАРКИБИЙ ҚИСМЛАРИ ҲАҚИДА	12-17
<i>Эгамбергенов Ҳайтбой Ҳамидулло ўғли</i> ТОШ ДАВРИ АҲОЛИ МИГРАЦИЯЛАРИ (ЎРТА ОСИЁНИНГ ЖАНУБИЙ, ЖАНУБИЙ-ҒАРБИЙ ВА ҚУЙИ АМУДАРЁ ҲУДУДЛАРИ МИҚЁСИДА)	18-25
<i>Esonov Ziyodbek Yuldashevich</i> ҚО’ҚОН ХОНЛАРИ СУЛОЛАСИНИНГ ГЕНЕОЛОГИК ТАҲЛИЛИ	26-31
<i>Mamatqulov Bekzod</i> О’ЗБЕКИСТОНДА XX-АСРНИНГ 20-40-ЙИЛЛАРИДА СANOAT TARMOQLARINING RIVOJLANISHI VA KADRLAR TARKIBINI SHAKLLANTIRISH JARAYONLARI	32-38
<i>Asadova Ra’no Baymanovna</i> О’ЗБЕК- HIND MUNOSABATLARINING YANGI BOSQICHGA KO’TARILISHI: HAMKORLIK ISTIQBOLLARI	39-42
<i>Saidova Raxima</i> О’ЗБЕКИСТОН ВА ИТАЛИЯ MUNOSABATLARINING ME’YORIY-HUQUQIY MANBALARI	43-48
<i>Ortiqov Yosin Abdulboqiyevich, Ergasheva Ra’no Muzaffarbek qizi</i> AFROSIYOB ARXEOLGIK YODGORLIGINING O’RGANILISH TARIXI	49-55
<i>Iriskulov Bekzod Jaxongirovich</i> TURKISTON GENERAL-GUBERNATORLIGI BYUDJETINING SARFLANISHIGA DOIR AYRIM MULOHAZALAR	56-60
<i>Mirsoatova Sayyora Turg’unovna</i> QOYATOSH SURATLARIDA IBTIDOIY DAVR IQTISODIY HAYOTINING AKS ETISHI	61-66
<i>Лухмонов Шахзод Сайфиддин ўғли</i> ВЛИЯНИЕ ДЕНЕЖНОЙ ЭМИССИИ В 1918-1920 ГОДАХ НА СОЦИАЛЬНО- ЭКОНОМИЧЕСКУЮ ЖИЗНЬ НАРОДОВ ТАССР	67-71
<i>Axmedov Bekzod</i> SOVET HOKIMIYATI TOMONIDAN O’ZBEKISTONDA QORAKO’LCHILIKNI RIVOJLANTIRISH TADBIRLARI.....	72-75
<i>Mamatov Jasurbek Qodirqul o’g’li</i> NAMANGAN VILOYATI ZIYORATGOHLARINING AHOLINING IJTIMOIIY HAYOTIDAGI O’RNI (UYCHI TUMANI DEVONA BUVA ZIYORATGOHI MISOLIDA)	76-80
<i>Saidaxmatov Sharifbek Toshpo’latovich</i> SURXONDARYO VILOYATI SANOATINI RIVOJLANTIRISH STRATEGIYASINING ASOSIY YO’NALISHLARI	81-88

Ибрагимов Рахмон Зиёдуллаевич

ТОШКЕНТ ВОҲАСИ ПАЛЕОМЕТАЛЛ ДАВРИ ЖАМИЯТИ ТАРАҚҚИЁТИДА ТАБИЙ
РЕСУРСЛАРНИНГ АҲАМИЯТИ 89-93

Akrorov Botir Bakhodirovich

ДОГОВОРНО-ПРАВОВАЯ БАЗА СОТРУДНИЧЕСТВА РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН И ИРАНА
В ГОДЫ НЕЗАВИСИМОСТИ 94-99

08.00.00 – IQTISODIYOT FANLARI

Tursunov Bekmuxammad Omonovich

IQTISODIYOTDAGI TARKIBIY O'ZGARISHLAR SHAROITIDA SANOAT KORXONALARI
RAQOBATBARDOSHLIGINI TA'MINLASH MEKANIZMI TAKOMILLASHTIRISH 100-108

Muxitdinova Kamola Alisherovna

«OLMALIQ KON-METALLURGIYA KOMBINATI» AJDA ISHLAB CHIQARILADIGAN
MAHSULOTLARNING SANOAT KORXONALARIDA QO'LLANISHI 109-115

Madraximov Qaxramon Egamberganovich

INNOVATSION FAOLIYATNI RIVOJLANTIRISH ORQALI IQTISODIY BARQARORLIKKA
ERISHISH YO'LLARI: XORAZM VILOYATI MISOLIDA..... 116-125

Кетманов Авазбек Маликович

КИЧИК БИЗНЕС МОЛИЯВИЙ РЕСУРСЛАРИ САМАРАДОРЛИГИ ОМИЛЛАРИ ВА УЛАРНИНГ
ЎЗИГА ХОС ХУСУСИЯТЛАРИ 126-134

Xolmirzayev Abdulxamid Xapizovich

KAMBAG'ALLIKKA QARSHI KURASHISHNING OMILLARI..... 135-142

Bahriddinov Jahongirbek Ravshanjon ogli

MARKET MECHANISMS, METHODS OF PRICE FORMATION IN THE SYSTEM OF MARKETING
OF GOODS AND SERVICES 143-152

Ilhamova Zarnigor Po'latjon qizi

MINTAQA TURIZMINI RIVOJLANTIRISHDA RAQAMLI MARKETING TIZIMINI
TASNIFI 153-160

Sharipov Komil

MINTAQAVIY KAMBAG'ALLIKNI KAMAYTIRISHDAGI KICHIK BIZNESNING ROLI 161-170

Rajabov Navruzbek Azimjonovich

MAISHIY XIZMAT KO'RSATISH SOHASINI RIVOJLANISHI VA KAMBAG'ALLIKNI
QISQARTIRISHGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR TAHLILI 171-179

Mirzaeva Shirin Nodirovna

SUPPORT AND DEVELOPMENT OF WOMEN'S ENTREPRENEURSHIP IN
UZBEKISTAN..... 180-187

Pardayev Rasulbek Islomovich

TURIZM XIZMATLARI SIFATINI BAHOLASHNING USULLARI VA ULARNING
TAHLILI 188-196

Bahodirov Shohruh Bahodir o'g'li

SANOAT KORXONALARIDA INNOVATSION FAOLIYATNI BOSHQARISH
XUSUSIYATLARI 197-202

<i>Рахимов Бахромжон Ибрахимович</i> ВНЕДРЕНИЕ ИННОВАЦИОННЫХ МЕТОДОВ ДЛЯ ПОВЫШЕНИЯ ЭФФЕКТИВНОГО ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ВОДНЫХ РЕСУРСОВ	203-209
<i>Zakirova Gulnora Mirzaliyeva, Madaminov Abdulaziz Anvarjon o'g'li</i> O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA EKSPORT VA IMPORT SALOHİYATI (NAMANGAN VILOYATI TAHLILIDA).....	210-216
<i>Hasanov Ilkhom Isakovich</i> IMPROVING THE FINANCING MECHANISM OF THE SCIENTIFIC SUPPLY SYSTEM IN THE AGRICULTURE OF UZBEKISTAN.....	217-221
<i>Ibragimova Nilufar Ziyadullayevna</i> CHAKANA SAVDO KORXONALARIDA XIZMATLAR KO'RSATISHNING XUSUSIYATLARI	222-227
<i>Maxmudov Jasurbek Ergashevich</i> INNOVATION IQTISODIYOT SHAROITIDA KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINI MOLİYAVIY JIHATDAN QO'LLAB-QUVVATLASH TAHLILI	228-233
<i>Ravshanov Nodirjon Begalievich</i> TA'LIM XIZMATLARI BOZORIDA OLIY TA'LIM MUASSASALARI RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISHNING AHAMIYATI	234-243
09.00.00 – FALSAFA FANLARI	
<i>Murtozayev Shahobiddin Baxriddinovich</i> SHIHOIDDIN SUHRAVARDIY FALSAFIY QARASHLARIGA IJTIMOY-SIYOSIY VAZIYATLARNING TA'SIRI	244-248
<i>Qutlimuratov Sardorbek Rustamovich</i> XORAZM JADIDLARI MA'NAVİY MEROSINING YANGI O'ZBEKISTONDA YOSHLARINI VATANPARVARLIK VA BAG'RIKENGLIK RUHIDA TARBIYALASHDAGI AHAMIYATI.....	249-254
<i>Saburov Jaloliddin</i> XVIII-ASR OXIRI VA XIX-ASR BOSHLARIDA BUXORO AMIRLIGIDA ILM-FAN VA MADANIY HAYOT RIVOJI	255-260
<i>Jabborov Ikromjon Jumaniyozovich</i> NAJMIDDIN KUBRO TA'LIMOTIDA "KOMIL INSON " TARBIYASI VA UNING AXLOQIY VA MA'NAVİY YUKSALISHGA OID G'OYALARNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI	261-265
<i>Saidkulov Nuriddin Akramkulovich</i> FORMATION OF PERSPECTIVES REGARDING SOCIETY'S STABILITY	266-271
<i>Adilov Zafar Yunusovich</i> MAHMUD AZ-ZAMAHSHARIY QARASHLARIDA SUV VA SHIFOBAXSH MEVALAR MASALASI	272-277
<i>Yuldashev Farrux Abdurakhmanovich</i> ON THE QUESTION OF THE UNIQUE ROLE OF THE PRINCIPLES OF HUMANITY AND PATRIOTISM IN THE DEVELOPMENT AND STRENGTHENING OF THE FUTURE OF THE YOUNG GENERATION	278-282
<i>Ganiyev Baxodirjon Sodiqjonovich</i> TADBIRKORLIK MADANIYATINING SENSUALISTIK VA AKSILOGIK XUSUSIYATLARINING IJTIMOIY-FALSAFIY TAHLILI	283-287

11.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI*Baxronova Dilrabo*

PROTOTURKIYLARNING AMERIKA QIT'ASIGA KO'CHISHI: LEKSIK PARALLELLIZM VA ETIMOLOGIK-SEMANTIK TADQIQ 288-295

Daliyeva Madina

DETERMINANTS OF COGNITIVE MODELING OF POLYSEMY OF LINGUISTIC TERMS IN ENGLISH, UZBEK, AND RUSSIAN LANGUAGES 296-300

Paluanova Khalifa

STRATEGIES FOR ENHANCING PRAGMATIC COMPETENCE IN SECOND LANGUAGE ACQUISITION (SLA) THROUGH EFFECTIVE APPROACHES 301-306

Равшанов Махмуд

СЕМАНТИКА ГЛАГОЛОВ В «ДИВАНИ ЛУГАТ-ИТ ТУРК» МАХМУДА КАШГАРСКОГО 307-311

Bekbergenova Gulaim Aijarıkovna

SEMANTIC CLASSIFICATION OF ENGLISH AND KARAKALPAK ANTHROPOCENTRIC PROVERBS 312-318

Normamatov Farrux Komiljon o'g'li

MURAKKAB USLUBDAGI ASARLAR XUSUSIYATLARI VA UNDA FORMALIZM YONDASHUVI 319-322

Gulamova Dilobar Imamkulovna

ADABIYOT DARSLIKLARDA EVFEMIZMLARNING QO'LLANILISHI VA TAHLILI 323-326

Xolmuxamedov Baxtiyor

TERS LUG'ATLARNING ASOSIY XUSUSIYATI VA ULARNI TUZISH METODIKASI 327-334

Chorieva Iroda Kurbonboevna

KASALLIK NOMLARI VA BELGILARI KELTIRILGAN INGLIZ VA O'ZBEK MAQOLLARINING LINGVOMADANIY XUSUSIYATLARI 335-339

Ganiyeva Orzigul Xayriddinovna

XX ASR AMERIKA REALISTIK QISSACHILIGIDA POETIK KONSTRUKSIYA: SHAKL VA MAZMUN MASALASI 340-345

Расулова Камола

ПОНЯТИЕ ТРАНСФОРМАЦИИ. ВИДЫ АВТОРСКИХ ПРЕОБРАЗОВАНИЙ ФРАЗЕОЛОГИЧЕСКИХ ЕДИНИЦ 346-353

Омонов Турғунбой

“СУҒУРТА” ТЕРМИНИНИНГ ЛИНГВИСТИК ТАЪРИФИ 354-358

Хакбердиева Сайёра Фармоновна

ЛИНГВИСТИЧЕСКАЯ ОБЪЕКТИВИЗАЦИЯ ФРЕЙМА «МАТЬ» И «ОТЕЦ» В РУССКОМ И УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКАХ 359-364

Xolmirzayev Baxtiyor Mirzamahmudovich

IJTIMOIY-SIYOSIY ASAR TARJIMASINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI 365-370

Gubaydullin Artur Faridovich

CHALLENGES OF TRANSLATION IN TERRY PRATCHETT'S "GOOD OMENS" 371-376

Abdullaeva Sevara Makhsudaliyevna

EMOTIVE INTENSIFIERS OF ENGLISH AND RUSSIAN LANGUAGES 377-381

Baymuradova Gulbaxar Chari Qizi

SURXONDARYO VILOYATI FITOTOPONIMLARINING STRUKTURGRAMMATIK

TAHLILI 382-385

Yuldasheva Nigora Baxodirovna

INGLIZ VA O'ZBEK PAREMIYALARINI O'RGANISHNING AKSIOLOGIK JIHATLARI 386-390

Quljanova To'lg'anoy Shodiyor qizi

ABDUVALI QUTBIDDIN SHE'RIYATIDA POETIK OBRAZLAR TAHLILI 391-396

12.00.00 – YURIDIK FANLAR

Рузметов Хайрулла

ФУҚАРОЛАРНИНГ ЎЗИНИ ЎЗИ БОШҚАРИШ ОРГАНЛАРИ МАНСАБДОР ШАХСЛАРИНИНГ
КОНСТИТУЦИЯВИЙ-ҲУҚУҚИЙ ЖАВОБГАРЛИГИ 397-402

Ачилова Лилия Илхомовна

ТУРИСТИК ХИЗМАТЛАР КЎРСАТИШ БЎЙИЧА ФУҚАРОЛИК-ҲУҚУҚИЙ
МУНОСАБАТЛАРНИ ТАРТИБГА СОЛИШНИНГ УНИФИКАЦИЯСИ ЧЕГАРАЛАРИ
РАҚАМЛАШТИРИШ ШАРОИТИДА 403-410

Abdubannayev Umidjon

AXBOROTGA BO'LGAN INSON HUQUQLARINI TA'MINLASHNING
RIVOJLANISH BOSQICHLARI 411-421

Халиқулов Комолиддин Носирович

ХОРИЖИЙ ДАВЛАТ СУДЛАРИНИНГ ҚАРОРЛАРИНИ ТАН ОЛИШ ВА ИЖРО ЭТИШДА
ДАВЛАТ СУВЕРЕНИТЕТИ МАСАЛАЛАРИ 422-427

Тўраев Жавоҳир Усмон ўғли

ХОДИМЛАР МЕҲНАТ ҲУҚУҚЛАРИГА РИОЯ ҚИЛИНИШИ БЎЙИЧА ДАВЛАТ НАЗОРАТИ ВА
ТЕКШИРУВИ ТУШУНЧАСИГА ОИД НАЗАРИЙ ҚАРАШЛАР 428-433

Элмурзаев Билолиддин Нурмон ўғли

ТЕРГОВ ҲАРАКАТЛАРИНИ АМАЛГА ОШИРИШДА ТЕРГОВЧИНИНГ ПРОЦЕССУАЛ
МУСТАҚИЛЛИГИНИ ТАЪМИНЛАШ 434-439

Djumaniyazova Dilfuza Kamalovna, Shayakubov Shomansur Shakabilovich

IJTIMOIIY HAVF GURUHIGA KIRUVCHI YOSHLAR O'RTASIDA HUQUQBUZARLIKLARGA
QARSHI KURASHISH BO'YICHA HORIIY TAJRIBA 440-446

Алиев Асилбек Кадирович

КРИМИНОЛОГИЧЕСКИЕ (СОЦИАЛЬНЫЕ) ПРЕДПОСЫЛКИ И КОРНИ РАСПРОСТРАНЕНИЯ
АЗАРТНЫХ ИГР СРЕДИ НАСЕЛЕНИЯ 447-451

Нодирахон Абдурахманова

РЕГУЛИРОВАНИЕ ФИНТЕХА И КРИПТОВАЛЮТ: ОСНОВНЫЕ ВЫЗОВЫ И ПРАВОВЫЕ
АСПЕКТЫ 452-462

Ғайбуллаев Соҳибжон Ғайбуллаевич

РЕПО БИТИМЛАР – ТАЪМИНЛОВЧИ БИТИМ СИФАТИДА УМУМИЙ ТАВСИФ 463-469

13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI

Xusanova Mohira

OLIY O'QUV YURTLARIDA TALABALARNI BAHOLASH SHAKLINI
TAKOMILLASHTIRISH 470-479

<i>Берикбаев Алишер Аликулович</i> ТАСВИРИЙ САНЪАТ ФАНЛАРИНИ ЎҚИТИШДА ИЛҒОР ТАЪЛИМ ТЕХНОЛОГИЯСИДАН ФОЙДАЛАНИШ САМАРАДОРЛИГИНИ ОШИРИШ	480-483
<i>Yusupova Shoxista Alimjanovna</i> TALABALARNING TASVIRIY SAN'AT MASHG'ULOTLARIDA IJODIY QOBILIYATINI SHAKLLANTIRISH TEXNOLOGIYASI	484-489
<i>Yakubova Nafisa Odilyanovna</i> CHIZMACHILIK DARSLARIDA TALABALARNI IJODIY-KREATIV FIKRLASHGA O'RGATISH	490-494
<i>Musirmanov Shohboz Usmon o'g'li</i> TURIZM SOHASIDA KADRLAR TAYYORLASHDA AMALIYOT VA NAZARIYANING PEDAGOGIK UYG'UNLIGI	495-500
<i>Suvankulov Umid Ilxom o'g'li</i> MALAKA OSHIRISH JARAYONIDA PEDAGOGLARNING DISKURSIV KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISH TEXNOLOGIYASI	501-505
<i>Ibragimov A'lamjon Amrilloevich</i> O'QITUVCHILARNI UZLUKSIZ KASBIY RIVOJLANTIRISHGA KOGNITIVFUNKSIONAL YONDASHUV	506-518
<i>Jo'rayeva Feruza Baxtiyor qizi, Mavlonov Shaxzod Shahobiddin o'g'li</i> TA'LIMDA KOMMUNIKATIV INNOVATSION VOSITALAR VA ULARNING IMKONIYATLARI	519-524
<i>Siddiqova Shahnoza Ahmedovna</i> SCIENCE XALQARO BAHOLASH TADQIQOTLARINING O'ZBEKISTONDA BIOLOGIYA O'QITUVCHILARINING TABIIY FANLAR SAVODXONLIGINI SHAKLLANTIRISHGA TA'SIRI	525-529
<i>Xoliqov Nasriddin Abdikarimovich</i> MILLIY IQTISODIYOT RIVOJLANISHINING SHARTI SIFATIDA TA'LIM, FAN VA BIZNESNING O'ZARO ALOQALARI MAZMUNI	530-534
<i>Javliyeva Shahnoza Bahodirovna</i> TA'LIM SIFATIGA YO'NALTIRILGAN O'QUV MATERIALLARINI YARATISH MODELI	535-539
<i>Jumaboev Nabi Pardaboevich</i> TA'LIM SIFATIGA YO'NALTIRILGAN O'QUV MATERIALLARINI YARATISH MODELI	540-545
<i>Kayumov Erkin Kazakbayevich</i> THE IMPORTANCE OF FINE ARTS IN SHAPING STUDENTS' PERCEPTION AND CREATIVITY	546-550
<i>Khojamqulov Rasulbek Kurban ugli</i> THE NEED TO DEVELOP COMPETENCY OF FUTURE ENGINEERS USING COMPUTER GRAPHICS	551-555
<i>Latipova Gavhar Shavkat kizi</i> TARIX YO'NALISHI TINGLOVCHILARI UCHUN KREATIV SALOHİYATNI RIVOJLANTIRISH DOLZARB PEDAGOGIK MUAMMO SIFATIDA	556-564
<i>Ernazarov G'olibjon Ne'matovich</i> ATROF- MUXITNING YUKORI XARORATIDA MUSHAK FAOLIYATI	565-568

Received: 31 October 2024
Accepted: 5 November 2024
Published: 15 November 2024

Article / Original Paper

DEVELOPMENT STAGES OF PROVIDING HUMAN RIGHTS TO INFORMATION

Abdubannayev Umidjon,

Independent researcher of the National Center for Human Rights of the Republic of Uzbekistan
Gmail: umidjon.abdubannaev@gmail.com

Abstract. In the article, the author studied the development stages of ensuring human rights to information from the ancient world to the present, and developed its development trends based on analysis. Also, based on these analyses, the author presented his partial conclusions.

Key words: Universal Declaration of Human Rights, International Covenant on Civil and Political Rights, Holy Qur'an, COVID-19, Amir Temur's codes, UN, Rio Declaration, Aarhus Convention.

AXBOROTGA BO'LGAN INSON HUQUQLARINI TA'MINLASHNING RIVOJLANISH BOSQICHLARI

Abdubannayev Umidjon,

Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Milliy markazi mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya. Maqolada muallif qadim dunyodan to hozirgi davrga qadar bo'lgan muddatda axborotga bo'lgan inson huquqlarini ta'minlashning rivojlanish bosqichlarini o'rganib chiqib, uning rivojlanish tendensiyalarini tahlil asosida ishlab chiqqan. Shuningdek, ushbu tahlillar asosida muallif o'zining juz'iy xulosalarini taqdim qilgan.

Kalit so'zlar: Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi, Fuqaroviy va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro Pakt, Qur'oni Karim, COVID-19, Temur tuzuklari, BMT, Rio deklaratsiyasi, Orxus konvensiyasi.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V4I11Y2024N62>

Kirish. Axborotga bo'lgan inson huquqlarini ta'minlashning rivojlanishini tarixiy tahlilsiz ko'rib chiqishning imkoni yo'qligi bois axborotga bo'lgan inson huquqlarini ta'minlash tendensiyalarining paydo bo'lishi va rivojlanishi sabablarini o'rganish lozim. Bu esa o'z navbatida ushbu sohadagi qonun hujjatlarini isloh qilish va optimallashtirishga imkon berishi mumkin. Bu kabi huquqiy hodisalarni tarixiy tahlil qilish axborotga bo'lgan inson huquqlarini ta'minlashning shakllanishi va rivojlanishining qiyosiy tahlilini tadqiq etishga xizmat qiladi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiyasi. Avvalo, axborotga bo'lgan inson huquqlarini rivojlanish bosqichlarini tahlil qilishda eng qadimgi (raqamli texnologiyalar mavjud bo'lmagan) tarixiy davrlarni ham qo'shgan holda kompleks tadqiq etish maqsadga muvofiq deb hisobladik.

Axborotga bo'lgan inson huquqlarini rivojlanish bosqichlariga oid doktrinal qarashlar va xalqaro standartlarni tahlil qilgan holda quyidagi tendensiyalarni ilgari surish mumkin:

Birinchi, axborotga bo'lgan inson huquqlarini rivojlanishning shakllanishi: axborotga bo'lgan inson huquqi tushunchasi turli madaniyat va jamiyatlarning odat va an'analariga bog'liq bo'lib, o'ziga xos tarixiy ildizlarga va shartlarga egaligidir. Qadimgi Rigvedalar, Ahamoniylar

podshosi Kirning silindrsimon toshga bitilgan Inson huquqlari xartiyasi, Buyuk Ashoka farmonlari va Aflotun tomonidan ishlab chiqilgan davlat boshqaruvida axborotga bo'lgan inson huquqining falsafiy g'oyaviy negizlari, qolaversa, Islom dinining asosiy manbalaridagi hurfikrlilikka oid qarashlar mazkur fenomenning ilmiy-nazariy poydevorini yaratdi.

Ikkinchi, davlatlarda milliy qonunchilikning rivojlanishi: inson huquqlarining rivojlanishi bilan davlatlar o'z qonunchiligida fuqarolarning "bilish huquqi"ni kafolatlaydigan qonunlar orqali siyosat olib bora boshladilar. Ya'ni, matbuot erkinligi to'g'risidagi qonunlar, so'z va fikrlash erkinligiga qarshi bo'lgan senzuralarning qisman yoki to'liq holda bekor bo'lishi axborot erkinligiga oid milliy qonunchilikning shakllanishiga sabab bo'ldi.

Uchinchi, inson huquqlarini himoya qilishga bo'lgan harakatlar va xalqaro huquqning rivojlanishi: XX asrda inson huquqlarining rivojlanishi faol tarzda xalqaro munosabatlarga ta'sir ko'rsatdi. Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi, Fuqaroviy va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro Pakt, Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar to'g'risidagi xalqaro Pakt kabi muhim xalqaro hujjatlar axborotga bo'lgan inson huquqlarini shaxsning asosiy huquqlardan biri sifatida e'tirof etdi. Shuningdek, xalqaro tashkilotlarning sa'y-harakatlari bilan axborotga bo'lgan inson huquqlarini himoya qilishga qaratilgan normalarni yaratish ishlari boshlandi.

To'rtinchi, fuqarolarning (ko'pincha soliq rezidentlari) rasmiy ma'lumotlarga kirish huquqini va davlat organlarning so'rov bo'yicha ma'lumot berish majburiyatini qonun tomonidan tan olinishi global tendensiyaga aylandi. Korrupsiyaga qarshi kurashish chora-tadbirlarining bir qismi sifatida fuqarolarning axborot olish erkinligi belgilandi.

Beshinchi, turli mamlakatlardagi odamlarning umumiy ekologik tashvishi axborotdan foydalanish institutini yaratish uchun kuchli turtki bo'ldi. Ya'ni, atrof-muhit muhofaza qilishga intilish hamda tabiatga sanoatdan chiqayotgan zararli modda va chiqindilar to'g'risida fuqarolarga doimiy hisobot berish majburiyatini yukladi.

Oltinchi, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining rivojlanishi bilan axborotga bo'lgan inson huquqlariga yangi muammolar va tahdidlar paydo bo'ldi. Ayniqsa, 2019-yilning oxirida jahon hamjamiyatini tashvishga solib kelgan COVID-19 virusi pandemiyasi sharoitida karantinli va inson uchun xavfli bo'lgan boshqa yuqumli kasalliklar haqida haqiqatga to'g'ri kelmaydigan ma'lumotlarni Internet butunjahon tarmog'i orqali tarqatish holatlari uchray boshladi. Yolg'on yoki feyk (soxta) xabarlar fuqarolarning hayoti va sog'lig'iga xavf tug'dirib, ommaviy tartibsizliklarni keltirib chiqarishi hamda davlat va jamiyat xavfsizligiga tahdid solish ehtimoli mavjud. Bu esa davlatlarga o'z qonunchiligida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish bilan bog'liq inson huquqlari buzilishining yangi shakllarini hisobga olish zarurligi va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarida bunday zararli omillarni sezilarli darajada oshirishi mumkinligiga e'tibor qaratish zarurligini taqozo etmoqda.

Ushbu maqolani tayyorlashda tarixiy, tahliliy, qiyoslash hamda umumlashtirish kabi metodlardan foydalanildi.

Muhokama. Fikrimizcha, tarixiy tendensiyalarni tadqiq etish asnosida axborotga bo'lgan inson huquqlarini ta'minlashning rivojlanish bosqichlarini quyidagicha xronologik ketma-ketlikda joylashtirish mumkin degan xulosaga keldik, ya'ni:

- 1) Qadimgi davr (mil. avv. I ming yillik o'rtalaridan milodiy VIII asr boshlariga qadar);
- 2) O'rta asrlar davri (VIII asr boshlaridan XVII asr o'rtalariga qadar);
- 3) Yangi davr (XVII asrning o'rtalaridan II jahon urushiga qadar);

- 4) Zamonaviy davr (1946-yildan 2019-yilga qadar);
- 5) Eng yangi davr (2019-yildan to hozirga qadar).

Qadimgi dunyo tarixidan to hozirga qadar axborot erkinligi, xususan soʻz va fikrlash erkinligi, eʼtiqod erkinligi, insoniyatning axborot olishga boʻlgan huquqlari borasida dunyoning turli mintaqalarida har xil shakllangan anʼanalalar, nazariya va qarashlar mavjud boʻlgan. Ushbu anʼanalalar, qarashlar va nazariyalar zamonaviy dunyodagi axborotga boʻlgan inson huquqlarini shakllanishida tamal toshini qoʻygan deya bemalol ayta olamiz. Tadqiqotimiz davomida shuni guvohi boʻldikki, miloddan avvalgi asrlarda bitilgan qonun-qoidalar, urf-odatlar zamonaviy xalqaro huquqiy hujjatlarda oʻz aksini topganligi, olimlarning nazariyalari esa to hozirga qadar dolzarb ekanligini angladik. Shuning uchun ham axborotga boʻlgan inson huquqlarini taʼminlashning rivojlanishini birinchi boʻlib qadimgi dunyo hamda islom dini taʼlimoti asosidagi qadimiy hujjatlar hamda qarashlarni oʻrganishdan boshladik.

Shunday qadimiy hujjat biri Shimoliy Hindistonda miloddan avvalgi ikkinchi-birinchi mingyilliklarda yuz bergan voqealar haqida maʼlumot beruvchi Rigvedalardir. Rigvedalarda aytiladiki: “Bizga har tomondan olijanob fikrlar kelsin. Insoniyat taraqqiyoti va tinch rivojlanishi uchun qarama-qarshi boʻlishi mumkin boʻlgan har qanday fikrlarni qabul qilish kerak”[1].

Yana bir hujjat asoschisi Fors davlatiga asos solgan birinchi Ahamoniylar podshohi Kir (miloddan avvalgi 580-529) boʻlgan. U oʻzi hukmronlik qilgan barcha irqning diniy eʼtiqodlari va madaniy anʼanalariga hurmat koʻrsatgan. U oʻzining silindrsimon toshga bitilgan Inson huquqlari xartiyasida u hech qachon hech kimning birovga zulm qilishiga yoʻl qoʻymasligiga, ruxsatsiz egalik qilishga yoʻl qoʻymasligiga, odamlar dinni tanlashda erkin boʻlishiga va hokazolarga ishonitirdi. Silindrdagi yozuvlar Kirning diniy, irqiy va til erkinligini targʻib qilgani va bobilliklar tomonidan surgun qilinganlarga oʻz vatanlariga qaytishga ruxsat bergani haqida soʻzlab, Mesopotamiya va mintaqaning boshqa joylarida ibodatxonalar va diniy ziyoratgohlarni tiklagan Bobil fuqarolarining xayrixohi sifatida ulugʻlaydi. Xartiya matnining baʼzi qismlarida soʻz erkinligining bir qismi boʻlgan haqorat qilmaslik hamda diniy eʼtiqod erkinligi ifodalangan:

“Imperiyamdagi xalqlarning urf-odatlari, anʼanalari va dinlarini hurmat qilishimni, mening tirikligimda hokimlarim va qoʻl ostidagilarimga hech qachon ularni mensimaslik va haqorat qilishiga yoʻl qoʻymasligimni eʼlon qilaman. Bundan buyon men hech qachon birovga zulm qilishga yoʻl qoʻymayman va agar shunday boʻlsa, men uni qaytarib olaman va zolimni jazolayman”; “Men hech qachon hech kimga boshqalarning koʻchar va yer mulkini kuch bilan yoki tovonsiz egallab olishiga yoʻl qoʻymayman. Men tirik ekanman, haq toʻlanmaydigan, majburiy mehnatning oldini olaman. Bugun men har kim din tanlashda erkin ekanligini eʼlon qilaman. Odamlar hech qachon birovning huquqlarini buzmasa, barcha hududlarda erkin yashashi va ish bilan shugʻullanishi mumkin [2]”.

Shuningdek, miloddan avvalgi 268-yildan 232-yilgacha Hindistonning Maurya sulolasining zoʻravonlikka yoʻl qoʻymagan va rahm-shafqatli imperatori boʻlgan Buyuk Ashoka (miloddan avvalgi 304–232 yillarda) ning farmonlarida hayvonlarni himoya qilishga, jinoyatchilarga rahm-shafqat koʻrsatishga hamda boshqa dinlarga nisbatan bagʻrikenglikka daʼvat etishga qaratilgan gʻoyalar boʻlgan. Uning fikricha, birovning diniga zarar yetkazish oʻz diniga zarar yetkazishdir. Xalqidan totuvlik, tinchlik, mehr-oqibat, bagʻrikenglik bilan yashashni soʻragan [3].

Qolaversa, Islom dinining muqaddas kitobi Qur'oni karimning Baqara surasi 256-oyatida hech kimga fikr va e'tiqod majburan singdirilmasligi bayon qilingan: "Dinda zo'rlash yo'q, zero, to'g'ri yo'l yanglish yo'ldan ajrim bo'ldi. Bas, kim shayton (yoxud butlar) ni inkor etib, Allohga imon keltirsa, demak, u mustahkam halqani ushlabdi. Alloh eshituvchi va biluvchidir [4, 42-b]". Alloh taolo O'z Payg'ambari Muhammad alayhissalomga Qur'oni Karimni tushirib, Islomni joriy qilgandan so'ng to'g'ri yo'l noto'g'risidan, haq botildan ajradi. Hamma narsa o'z o'rnini topdi. Shunday bo'lgandan keyin "Dinga majbur qilish yo'q". Har kimga Alloh aql bergan, o'ziga kerak yo'lni tanlab olsin [5, 42-b].

Shu bilan birgalikda mutafakkir va qomusiy olim Abu Nasr Forobiy o'zining "Fozil odamlar shahri" asarida insonlarning qonunlar haqida axborot olishga ehtiyoji bor ekanligi, bu ehtiyojni doimiy to'ldirib borilishi juda muhim ekanligi ta'kidlangan Aflotunning quyidagi fikrlarini keltiradi: "Aflotun bu bo'limni sohibi qonunlar o'z asrining va kelgusi asrlarning odamlari murojaat etadigan ta'limot joriy etishlari zarurligi haqidagi masalani tushuntirish bilan boshlaydi. Bu eng muhim ish ekanligini eslatib o'tadi. Ta'limotlar bosqichma-bosqich va davlat ishlaridagi boshqa tadbirlar bilan birga amalga oshiriladigan asosiy ish bo'lishlari zarur. Bu ta'limot avvalo shu davrda urf bo'lgan odatlarni soxtalashtirish bilan mashg'ul odamlarga nisbatan qo'llanishi kerak. Bu soxtalashtirishlar qonunni yaxshi bilmaydigan odamlar va bolalarda bir illat paydo qilishi mumkin. Agar ta'limot va qonunlarga o'rgatish ishlari bosqichma-bosqich va doimo olib borilsa, u holda ular a'lo natijalar beradilar [6, 56-b]".

Temuriylar saltanatining asoschisi bo'lgan sohibqiron Amir Temur o'z tafakkurining mahsuli bo'lgan "Temur tuzuklari" asarining Mulku mamlakat, sipohu raiyat ahvolidan xabardor va ogoh bo'lib turish tuzuki qismida ishonchli va xolis axborot mamlakat va uning xalqi uchun katta ahamiyati borligini bildirib, quyidagi so'zlarni bitadi: "Amr qildimki, har yerda, viloyat-u shahar va lashkar o'rdusida kundalik voqealarni yozuvchilarni [7] tayin qilsinlarki, hokimlar, raiyat, sipoh, o'z lashkari va yot lashkarning xatti-harakati haqida meni xabardor qilsin. Atrofdan kirgan-chiqqan mol-mulk, chetdan kirgan, chetga chiqqan yot kishilar, har turli mamlakatlardan kelgan karvonlar, qo'shni podshoxdar, ularning gap-so'zlari, ishlari haqidagi xabarlar va uzoq o'lkalardan bo'lib, mening dargohimga yuzlangan ulamo, fuzalo haqidagi so'zlarni to'g'rilik bilan menga yozib tursinlar. Agar bunga xilof ish tutgudek bo'lsalar, (bo'lib o'tgan) voqealarni yozmasalar, yozuvchining xabar yozgan barmokdari kesilsin. Agar xabar yozuvchi biror sipohiyning xizmatini yashirsa yoxud xabarni boshqa libosga kiyintirib (yolg'on) yozgan bo'lsa, u holda uning qo'lini kessinlar. Agar yolg'on xabarni tuhmat yoki g'araz bilan yozgan bo'lsa, uni qatl etsinlar va yana amr etdimki, ushbu xabarlarni kunma-kun, haftama-hafta, oyma-oy mening arzimga yetkazib tursinlar" [8].

Axborotga bo'lgan inson huquqlarini ta'minlashga qilingan jadal harakatlar, ya'ni qonunlarda so'z, fikr, axborot olish erkinliklari o'z aksini topganligi o'rta asrlardagi Yevropaga borib taqaladi. Xususan, Angliyada fuqarolar urushi natijasida 1215-yil 15-iyul kuni qirol Ioann "Buyuk erkinlik xartiyasi" deb nomlangan siyosiy hujjatga imzo chekishga majbur bo'ladi. Xartiya qirollik hokimiyatini tiyib turuvchi ilk hujjat sifatida tarixdan joy oldi. Asrlar o'tib "Buyuk erkinlik xartiyasi" G'arb demokratiyasi uchun tamal toshi bo'lib xizmat qildi. Buyuk ozodlik xartiyasi 63 modddan iborat katta siyosiy hujjat bo'lib, u lotin tilida yozilgan. Eng mashhur ingliz sudyalaridan biri Lord Den Buyuk erkinlik xartiyasini "barcha davrlarning eng buyuk konstitutsiyaviy hujjati, despotizm va o'zboshimchaliklarga qarshi shaxs erkinligining poydevori" deb atagan edi. Mashhur ingliz tarixchisi Saymon Shama esa "Buyuk erkinlik

xartiyasi bu – erkinlikning tug‘ilganlik haqidagi guvohnomasi emas, balki despotizm (diktatura boshqaruvining asosiy xususiyatlaridan biri)ning o‘lim guvohnomasidir” – deya iqtibos keltirgan [9].

1679-yilda Angliyada “Habeas Corpus Act” deb nomlangan hujjat qabul qilinib, unda “Qamoqqa olishning tegishli tartibi” joriy qilingan, shaxsiy daxlsizlik kafolati belgilangan hamda aybsizlik prezumpsiyasi prinsipi va shaxsni himoya qilishga qaratilgan boshqa ba’zi qoidalar qabul qilingan [10]. 1989-yilda esa “Huquqlar to‘g‘risidagi Bill” qabul qilinib, inson huquqlarini rivojlantirish masalalari e‘lon qilingan. Jumladan, parlamentda so‘z va muhokama erkinligi, parlament saylovlari erkinligi, fuqarolarning qirolga murojaat qilish huquqi kabi huquqlar uchun asos yaratilgan.

L.I.Levkina A.Zamoyskiyning asariga tayanib, 1532-yilda Polshada Matbuot erkinligi to‘g‘risidagi qonunlar qabul qilinganligi qayd etgan [11, 128-b].

“Bilish huquqi”ni belgilovchi birinchi milliy qonunlar dastlab Shvetsiyada (1766), keyinchalik Finlyandiya (1951), AQSh (1966), Daniya (1970), Norvegiya (1970), Avstriya (1973), Fransiya (1978), Niderlandiya (1978), Yangi Zelandiya (1982), Avstraliya (1982) va Kanada (1982) da qabul qilindi. Ushbu mamlakatlarning ko‘pchiligi birinchi marta axborotni himoya qilish to‘g‘risidagi qonunlarni yoki fuqarolarga bevosita tegishli bo‘lgan rasmiy hujjatlarga kirish huquqini kafolatlaydigan shaxsiy daxlsizlik qonunlari qabul qildilar.

Tom ma’noda ommaviy axborotdan foydalanish huquqi nisbatan o‘rta asrlardan keyingi yangi davrda, ya’ni XVIII asrdan boshlab paydo bo‘la boshlagan. Fin ruhoniysi Antti Chydenius 1765-yildan boshlab Shvetsiya parlamentining a’zosi sifatida “Matbuot erkinligi va davlat yozuvlariga kirish huquqi” to‘g‘risidagi qonunning tashabbuskori bo‘lgan [12, 56-b].

Shvetsiya qirol Gustav III hukmronligi davrida, ya’ni 1776-yilda dunyoda birinchi bo‘lib Matbuot erkinligi to‘g‘risidagi qonunni qabul qildi. Qonun matbuot erkinligi va jamoatchilikning rasmiy hujjatlardan foydalanishi tamoyiliga oid masalalarni tartibga soladi. Ushbu qonun dunyoda matbuot erkinligi va axborot erkinligini qo‘llab-quvvatlovchi birinchi qonun sifatida ko‘riladi. Qonun barcha bosma nashrlarga, shu jumladan xorijiy ilmiy yoki diniy mavzulardagi nashrlarga nisbatan ham senzuraning bekor qiladi. Qolaversa, davlat organlari tomonidan tuzilgan hujjatlardan aholining foydalanishi kafolatlanadi. Ammo, davlatga yoki qirolga qarshi yozganlik uchun qattiq jazolar saqlanib qoladi, shu o‘rinda nazorat jamoat senzurasidan nashrlarga o‘tkazildi. Qonun rasmiy hujjatlarni so‘rov qilgan har bir kishiga zudlik bilan va bepul taqdim etilishini ta’minlagan edi”, — deb qayd etadi D.Banisar [13, 141-b]. Matbuot erkinligi to‘g‘risidagi qonunga tayyorgarlik jarayonida Angliya qayta va qayta namuna sifatida ko‘rsatildi. Bu, shubhasiz, ideallashtirilgan paradigma edi, lekin turli mamlakatlardagi sharoitlarni solishtiradigan bo‘lsak, bu bejiz emas. Ushbu qonun Shvetsiya konstitutsiyasini tashkil etuvchi to‘rtta asosiy qonunlardan biri hisoblanadi. 1976-yilda esa ushbu qonunning tahriri o‘zgartirildi (Konstitutsiyaviy qonunga o‘zgartirish kiritish uzoq jarayonni talab qiladi). Qonunning 2-bobi “Rasmiy hujjatlarning ijtimoiy tabiati to‘g‘risida” deb nomlanadi. Ushbu bobda qonun hujjatlarida belgilangan qoidalarga muvofiq [14, 160-b] “har bir fuqaro Shvetsiya rasmiy hujjatlaridan erkin foydalanish huquqiga ega” [15] ekanligi ko‘rsatilgan.

Finlyandiya ma’lumot olish erkinligi to‘g‘risidagi qonunchilikning uzoq an’analari mavjud. Finlyandiya Shvetsiya Qirolligining bir qismi sifatida (1150-1809) 1766-yildagi Matbuot erkinligi to‘g‘risidagi qonundan foydalangan.

1770-yil 4-sentabrdan 1771-yil 7-oktabrgacha Daniya-Norvegiya Qirolligida senzura butunlay bekor qilindi, ushbu holat anonim tanqidiy risolalarning katta oqimda tarqalishiga olib keldi. Bu esa o'z navbatida hukumatni yana bir bor ma'lum chegaralar ichida matbuot erkinligini cheklashga majbur qildi [16].

Insonning shaxsiy huquqlarini konstitutsiyaviy tarzda mustahkamlab qo'ygan eng qadimiy hujjatlardan biri bu 1789-yilgi birinchi marta Fransiya Ta'sis majlisi tomonidan e'lon qilingan "Inson va fuqaro huquqlari deklaratsiyasi"dir. U so'z va matbuot erkinliklari hamda xususiy mulkning daxlsizligi kabi burjua huquqlarini e'lon qildi. Deklaratsiyaning mohiyati "Ozodlik, Tenglik, Birodarlik!" degan uchta so'zda o'z ifodasini topdi. Deklaratsiyaning 11-moddasida quyidagi so'zlar qayd etilgan: "Fikr va mulohazalarni erkin bildirish insonning eng qimmatli huquqlaridan biridir. Shunindek, har bir fuqaroda erkin so'zlash, yozish va chop etish huquqi mavjud, qonun bilan belgilangan hollarda ushbu erkinlikni suiiste'mol qilish bilan bog'liq bo'lgan hollar bundan mustasno" [17]. Ushbu hujjat butun dunyoda inson huquqlarini, xususan so'z va fikrlash hamda axborot erkinligi shakllanib rivoj topishiga katta ta'sir ko'rsatdi.

Germaniyada 1815-yilda dastlabki senzura bekor qilindi, axborot va matbuot erkinligi huquqlari ma'lum darajada hisobga olinadi. Ammo 1819-yil 20-sentabrda Karlsbad konferensiyasi qarori asosida qabul qilingan ittifoq rezolyutsiyasi Germaniya Konfederatsiyasining barcha shtatlarida dastlabki senzuraning tiklashini ta'minladi. 1848-yilgi inqilob Germaniyaning aksariyat shtatlarida senzuraning bekor qilinishiga olib keldi. Yagona Germaniya imperiyasi e'lon qilingandan so'ng, konstitutsiya matbuotni umumiy imperiya qonunlari kodeksiga bo'ysundirdi. 1874-yil 7-mayda imperator matbuoti qonuni imzolandi, u ilgari butun Germaniya imperiyasida (Elzas-Lotaringiyadan tashqari) qabul qilingan mahalliy qoidalarni bekor qildi [18, 130-b].

Rossiyada 1804-yilda Aleksandr I Rossiya imperiyasida Senzura to'g'risidagi birinchi nizomni tasdiqladi. Ushbu nizomning birinchi bandida "Senzura jamoat foydalanishi uchun berilgan barcha turdagi kitoblar va asarlarni tekshirishga majburdir" [19] – deya ta'kidlangan. 1828-nizom yana yangilanib, ushbu senzura o'z bo'lsada yumshatilgan. 1855-1861-yillarda matbuot erkinligidagi ko'plab cheklovlarni olib tashlangan, matndagi turli talqin qilinishi mumkin bo'lgan joylar muallif foydasiga talqin qilinishi hamda senzura komissiyasi qarori ustidan shikoyat qilinishi mumkin bo'lgan.

AQShning Konstitutsiyasiga ko'ra har kim qaysi shahar yoki shtatda yashashidan qat'iy nazar, amal qilishi kerak bo'lgan qonunlar ro'yxati, ya'ni "Huquqlar to'g'risidagi bill" nomi bilan qayd etilgan. 1787-yilda Konstitutsiyaviy konvent konstitutsiyani qabul qilish uchun yig'ilganida o'nta tuzatish kiritilib, uning birinchisida quyidagilar kafolatlangan: "Odamlar o'zi xohlagan narsani aytish va yozish, ittifoq tuzish, hukumatga shikoyat qilish huquqiga ega. Kongress biron bir dinni rasmiy deb tasdiqlay olmaydi va odamlar istalgan dinga e'tiqod qilishi mumkin" [20].

II jahon urushidan so'ng 1945-yilda BMT tashkil topgandan boshlab inson huquqlarini, xususan insoniyatning axborotga bo'lgan huquqlarini poy-mol etmaslik masalasi birinchi o'ringa chiqib, universal va mintaqaviy doiradagi xalqaro shartnomalar qabul qilina boshlandi. Jumladan, 1948-yilda qabul qilingan Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi, 1952-yilda Xalqaro raddiya huquqi to'g'risidagi konvensiya, 1966-yilda qabul qilingan Fuqaroviy va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro Pakt va Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar to'g'risidagi xalqaro Paktlar shular jumlasidandir. Ushbu hujjatlarda axborotga bo'lgan

huquqlarini ta'minlashning asoslari keltirilgan. Xususan, Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasining Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasida har bir inson e'tiqod erkinligi va uni erkin ifoda qilish huquqiga ega ekanligi, bu huquq hech bir to'siqsiz o'z e'tiqodiga amal qilish erkinligini hamda axborot va g'oyalarni har qanday vosita bilan, davlat chegaralaridan qat'i nazar, izlash, olish va tarqatish erkinligini o'z ichiga olishi belgilangan.

XX asrning oxiri XXI asrning boshlarida butun dunyo bo'ylab jamiyatdagi turli umumbashariy muammolar yangi tendensiyalarni keltirib chiqardi. Ushbu muammolarga kurashish chora-tadbirlarining eng asosiysi sifatida fuqarolarning axborotga bo'lgan huquq ekanligini butun hamjamiyat e'tirof eta boshladi. Buning ortidan axborot erkinligi yanada taraqqiy etdi. Jumladan, fuqarolarning rasmiy ma'lumotlarga kirish huquqini va davlat organlarning so'rov bo'yicha ma'lumot berish majburiyatini qonun tomonidan tan olinishi global tendensiyaga aylanishi natijasida korrupsiyaga qarshi kurashish chora-tadbirlarining bir qismi sifatida fuqarolarning axborot olish erkinligi belgila boshlandi. Xususan, Xitoy Xalq Respublikasining Guanchjou va Shanxay mintaqalarida korrupsiyaga qarshi choralar sifatida mahalliy axborot erkinligi to'g'risidagi qonunlar qabul qilindi. 2007-yil aprel oyida Xitoy Xalq Respublikasi Davlat Kengashi 2008-yil 1-maydan kuchga kirgan "Xitoy Xalq Respublikasining Ochiq davlat axboroti to'g'risida qoidalari" [21] ni e'lon qildi. Devid Banisar va Privacy International jamoat tashkilotining 2006-yil ma'lumotlariga ko'ra, 70 ga yaqin mamlakat allaqachon tegishli qonunlarni qabul qilgan va 50 tasida ishlab chiqilmoqda [22].

2004-yilda inson huquqlarini himoya qilish bo'yicha uchta institut vakillari Birlashgan Millatlar Tashkilotining Fikr erkinligi va ularning erkin ifoda etilishi huquqini rag'batlantirish hamda himoya qilish to'g'risidagi masalalar bo'yicha maxsus ma'ruzachisi, Yevropada xavfsizlik va hamkorlik tashkilotining Ommaviy axborot vositalari erkinligi masalalari bo'yicha vakili, Amerika davlatlari tashkilotining Fikrni ifoda etish erkinligi masalalari bo'yicha maxsus ma'ruzachisi qo'shma deklaratsiya orqali barcha davlatlarni axborot erkinligi to'g'risidagi qonunlarni qabul qilishga chaqirdi. Ushbu chaqiriq axborotdan foydalanishni taqiqlovchi qonun hujjatlarini qayta ko'rib chiqish va zarurat tug'ilganda bekor qilish, shuningdek, milliy qonunchilikni xalqaro standartlarga muvofiqlashtirish taklif qilingan chora-tadbirlardan iborat edi. 2020-yil 30-aprelda esa "Raqamli texnologiyalar davrida fikrni ifoda etish va saylovlar erkinligi to'g'risida"gi qo'shma deklaratsiya qabul qilindi.

XXI asrning boshlaridan axborot olish va undan foydalanish korrupsiya muammosi bilan bog'liq holda zaruriyatga aylandi. 2003-yilning 31-oktabrida Birlashgan Millatlar Tashkilotining Korrupsiyaga qarshi konvensiyasi qabul qilindi va bu hujjat orqali davlatlarga aholining axborot axborot olish va undan foydalanish choralari yaxshilash va oshkoralikni kuchaytirishni tavsiya qiladi. Mazkur konvensiyaning 10-moddasi "Ommaviy hisobdorlik" deb nomlanib, har bir ishtirokchi Davlat o'z ichki qonunchiligining asosiy tamoyillariga muvofiq, uning ommaviy ma'muriyatining, shu jumladan uni tashkil etilishi, faoliyati va, tegishli hollarda, qarorlarni qabul qilish jarayonlariga tatbiqan, oshkoraligini kuchaytirish uchun talab etilishi mumkin bo'lgan choralarni ko'rishi kerakligi aytib o'tilgan. Bunday choralar qatoriga quyidagilarni ham kiritish mumkinligi ko'rsatilgan:

a) aholiga, tegishli hollarda, ommaviy ma'muriyatni tashkil qilish, uning faoliyat yuritishi va qaror qabul qilishi jarayonlari to'g'risidagi, hamda xususiy hayot va shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish zaruratini anglagan holda, aholi manfaatlariga daxldor qarorlar va yuridik amallar yuzasidan axborotga ega bo'lishga imkon beradigan taomil yoki qoidalarni qabul qilish;

b) tegishli hollarda, qarorlarni qabul qiluvchi vakolatli organlar huzuriga kirishda ommaviy imkonga ega bo'lishni osonlashtirish uchun ma'muriy taomillarni soddalashtirish; va
c) ommaviy ma'muriyatda korrupsiya xatari haqidagi davriy hisobotlarni kiritishi mumkin bo'lgan axborotni e'lon qilish.

Konvensiyaning 13-moddasida esa fuqarolik jamiyati, nohukumat tashkilotlar va jamoatlar negizida faoliyat yurituvchi tashkilotlar kabi ommaviy sektorning tashqarisida alohida shaxslar va guruhlarining faol ishtirokiga ko'maklashish uchun quyidagi choralar belgilangan:

a) aholini qarorlarni qabul qilish jarayonlariga jalb qilishga ko'maklashish va uning oshkoraligini oshirish;

b) aholi uchun axborotga ega bo'lishning samarali imkoniyatlarini ta'minlash;

d) korrupsiya to'g'risidagi axborotni izlash, olish, e'lon qilish va tarqatish erkinligini hurmat qilish, rag'batlantirish va himoya qilish. Bunday erkinlikning ma'lum cheklovlari boshqa odamlar huquqlari va obro'sini hurmat qilish hamda aholining milliy xavfsizligini yoki ommaviy tartibini, yoki sog'lig'ini saqlash, yoxud axloqini himoya qilish uchun belgilanishi mumkin [23].

Yuqoridagi tendensiyalar orasida insoniyatning umumiy ekologik tashvishi axborotdan foydalanish institutini yaratish uchun yanada kuchli ta'sir ko'rsatgani alohida o'ringa egadir. 1984-yil 3-dekabrda Hindistonning Bxopal shahrida qurbonlar ko'lami bo'yicha tarixdagi eng yirik texnogen falokat yuz beradi. Union Carbide India Limited Amerika-Hindiston qo'shma kimyo-sanoat zavodida bo'lgan bu texnik nosozlik sababli ko'plab insonlar qurbon bo'ladi (taxminan 2 400 nafar odam qurbon bo'lgan hamda 140 000 nafar odam jarohatlangan) va atrof muhitga 42 tonna zaharli kimyoviy birikmalardan iborat gaz tarqaladi. Shundan so'ng, AQSh Kongressi tomonidan 1986-yilda Favqulodda rejalashtirish va jamiyatning bilish huquqi to'g'risidagi qonun qabul qilindi [24]. Ushbu hujjat zaharli moddalarni chiqarish inventarizatsiyasini o'tkazdi hamda davlat va xususiy tashkilotlardan xavfli moddalarning chiqindilari to'g'risida hisobot berishni ham talab qildi.

1992-yilning 3-14-iyun kunlari Rio-de-Janeyroda BMTning Atrof-muhit va taraqqiyot bo'yicha BMT konferensiyasi (Yer sammiti) bo'lib o'tdi hamda Atrof-muhit va taraqqiyot to'g'risidagi deklaratsiya (Rio deklaratsiyasi) qabul qilindi. Ushbu hujjatning 10-Prinsipida davlatlar axborotdan keng foydalanishni ta'minlash orqali bu masalalarda jamoatchilikni xabardor qilish va ularning ishtirok etishini osonlashtirishi va rag'batlantirishlari kerakligi ta'kidlandi [25].

1998-yilda Rio deklaratsiyasining davomi sifatida Birlashgan Millatlar Tashkilotining Yevropa Iqtisodiy Komissiyasiga a'zo davlatlar va Yevropa Ittifoqi o'rtasida Axborotdan foydalanish, qarorlar qabul qilishda jamoatchilik ishtiroki va odil sudlovdan foydalanish to'g'risidagi huquqiy majburiy bo'lgan Orxus konvensiyasi [26] imzolandi. Orxus konvensiyasi tamoyillari demokratik qadriyatlar va so'z erkinligi va axborot olish huquqi bilan chambarchas bog'liqdir. Orxus konvensiyasida quyidagilar nazarda tutiladi:

– fuqarolarning davlat organlari tasarrufida bo'lgan ekologik axborotni olish huquqi;

– fuqarolarning atrof-muhit holatiga ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan reja va dasturlar, strategiya va qonunchilikni ishlab chiqishda ishtirok etish huquqi;

– fuqarolarning axborotdan foydalanish yoki jamoatchilik ishtiroki borasidagi huquqlari poymol etilgan holatlarda ishni ko'rib chiqish protseduralarida ishtirok etish huquqi.

Natija. 2023-yilning 2-iyunida Toshkentda "Orxus konvensiyasi: sog'lom atrof-muhit va barqaror rivojlanishni oqilona boshqarishda jamoatchilikning samarali ishtiroki" mavzusida xalqaro davra suhbatlari bo'lib o'tdi [27]. Unda O'zbekistonning Orxus konvensiyasiga qo'shilishi masalasi muhokama qilindi [28]. Ochilish marosimida nutq so'zlagan Tabiat resurslari vaziri Aziz Abduhakimov Orxus konvensiyasining ahamiyatiga alohida to'xtalib: "Ushbu konvensiya aholimiz, turli tashkilotlarimizga ekologik vaziyatdan boxabar bo'lish, muhim xabarlarni to'g'ridan-to'g'ri qo'lga kiritish imkonini beradi" [29] – deya ta'kidladi.

Tarixiy xronologik ketma-ketlikni eng so'ngisini 2019-yildan keyingi davr sifatida keltirishimizga asosiy sabab butun dunyoga yangi ommaviy virus bo'lgan COVID-19 tarqalishi fonida koronavirus haqida yolg'on axborotlar tarqalishi bilan bog'liq tashvishli holat dunyo miqyosida keng tarqaldi. Shuning uchun xalqaro hamjamiyat COVID-19 haqidagi yolg'on ma'lumot virusning o'zidan ham ko'ra xavfli ekanligiga e'tibor qaratib, barchaga rasmiy manbalardan foydalanish kerakligini tavsiya etdi. Kasallik va u bilan bog'liq bo'lgan haqiqatga to'g'ri kelmaydigan ma'lumotlarni Internet butunjahon tarmog'i orqali tarqatish holatlari, shuningdek yolg'on yoki feyk (soxta) xabarlar fuqarolarning hayoti va sog'lig'iga xavf tug'dirishi, ommaviy tartibsizliklarni keltirib chiqarishi hamda davlat va jamiyat xavfsizligiga tahdid solish ehtimoli mavjudligi davlatlarga o'z qonunchiligida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish bilan bog'liq inson huquqlari buzilishining yangi shakllarini hisobga olish zarurligini taqozo etib qoladi. BMT Bosh kotibi Antonio Guterrish bu haqida quyidagi so'zlarni keltiradi: "butun dunyo nafaqat koronavirusga qarshi, balki COVID-19 haqida noto'g'ri axborot ko'payishiga qarshi ham kurashmoqda. Bosh kotibning fikricha, mamlakatlar muntazam rasmiy ma'lumotlarni e'lon qilib borishlari zarur. Chunki hozirgi vaqtda pandemiyaga qarshi eng yaxshi qurol – bu ishonchli axborotdir" [30].

Xulosa. Fikrimizcha, internetni boshqarishda axborot olish erkinligi va jamiyat xavfsizligini himoya qilish bo'yicha konstitutsiyaviy huquqlar o'rtasidagi muvozanat doimo ta'minlanishi shart. Shuni hisobga olgan holda internetdan foydalanish va axborotni cheklash imkoniyati davlatlar qonunchiligida ko'zda tutilishi zarur (Internetdan foydalanish va axborotni cheklash imkoniyati dunyoning juda ko'plab mamlakatlari, shu jumladan, Yevropa Ittifoqi davlatlari qonunchiligida ham ko'zda tutilgan).

Yuqorida olib borilgan nazariy-huquqiy tahlillar asosida quyidagilarni xulosa qilamiz:

- e'tiqod erkinligiga bo'lgan intilish asosida inson huquqlari, xususan so'z va fikrlash erkinligi shakllangani;
- islom dinining tag zamirida dinga zo'rlash yo'q ekanligi insonlarga axborot olish hamda fikr yuritish erkinligini taqdim etganligi;
- Yevropada yakkahukmdor bo'lgan qirollarga nisbatan murosasiz kurash natijasida ularni tiyib turishga majbur etuvchi ilk hujjatlarda axborotga bo'lgan inson huquqlarini debochalari paydo bo'lganligi;
- insoniyatning umumiy muammolarining oldini oluvchi chora-tadbirlardan biri sifatida insoniyatning axborot olishga bo'lgan huquqi (rasmiy ma'lumotlardan foydalanish huquqi) birinchi o'ringa chiqqanligi;

dunyodagi turli favqulodda holatlar xolis va ishonchli axborotga bo'lgan talabni oshirib yuborganligi, yolg'on va soxta xabarlar jamiyatga katta zarar yetkazishi mumkinligini aytishimiz mumkin.

Адабиётлар/Литература/References:

1. Evolution of Right To Information: A Historical Perspective / Dr. Nishant Kumar Ojha, posted on June 7, 2014. // URL: <https://ojhanishant.wordpress.com/2014/06/07/evolution-of-right-to-information-a-historical-perspective>
2. URL: <https://visasukegan.wordpress.com/2016/04/11/the-cyrus-cylinder-and-the-ancient-proclamation-of-human-rights>
3. Evolution of Right To Information: A Historical Perspective / Dr. Nishant Kumar Ojha, posted on June 7, 2014. // URL: <https://ojhanishant.wordpress.com/2014/06/07/evolution-of-right-to-information-a-historical-perspective>
4. Qur'oni karim ma'nolarining tarjima va tafsiri/ O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Toshkent islom universiteti; tarjima va tafsir muallifi: Abdulaziz Mansur. - Samarqand: «Imom Buxoriy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi» nashriyoti. 2020. - 42 b.
5. Qur'oni Karim ma'nolarining tarjimasi - O'zbekcha tarjima, tarjimon: Muhammad Sodik Muhammad Yusuf, 2011. - 42 b.
6. Fozil odamlar shahri. Abu Nasr Forobiy / Tarjimonlar Abdusodiq Irisov, Markam Maxmudov, Urfon Otajon. Mas'ul muharrirlar M. Xayrullayev, M. Jakbarov. -Toshkent: Yangi asr avlodi, 2016. - 56 b.
7. Matnda «xabarnavis».
8. URL: <https://temurtuzuklari.uz/oz/clause/57>
9. URL: <https://xabardor.uz/uz/post/garb-demokratiyasining-ibtidosi-buyuk-erkinlik-xartiyasi-insoniyatga-nima-berdi>
10. Я.Ю. Царебулев, А.Д. Денисова. Историко-правовое значение Habeas corpus act в развитии английского законодательства / International Journal of Humanities and Natural Sciences, vol.11-3 (38), 2019. С. 113. // file:///C:/Users/User/Downloads/istoriko-pravovoe-znachenie-habeas-corpus-act-v-razvitii-angliyskogo-zakonodatelstva.pdf
11. Левкина Л.И. Право на информацию в Европе, 2015, С. 128.
12. Manninen, Juha. / Anders Chydenius and the origins of world's first freedom of information act. The World's first freedom of information act. Kokkola: Anders Chydenius Foundation, 2006, P. 56.
13. Банисар Д. Свобода информации и доступ к правительственным документам. Обзор законодательства по доступу к информации в мире. Пер. с англ./ Под ред. С. Шевердяева. М., 2004. С.141.
14. Афанасьева О. В. Доступ к информации. Мировой тренд в реформировании государства // Вопросы государственного и муниципального управления. 2012, № 3. С. 160.
15. 'The Freedom of the Press' ActSFS 1949
16. Laursen, J. Chr. (1998), 'David Hume and the Danish Debate about Freedom of the Press in the 1770s', Journal of the History of Ideas (University of Pennsylvania Press), vol. 59, no. 1, pp. 167–172. DOI:10.1353/jhi.1998.0004.
17. URL: <https://www.elysee.fr/en/french-presidency/the-declaration-of-the-rights-of-man-and-of-the-citizen>

18. Qarang: Левкина Л.И. Право на информацию в Европе, 2015, С. 130.
19. URL: <https://opentextnn.ru/old/censorship/russia/dorev/law/1804/index.html>
20. URL: <https://sinaps.uz/bilasizmi/12441/>
21. Regulations of the People's Republic of China on Open Government
22. Information, Adopted by the State Council on April 5, 2007; Effective May 1, 2008 // URL: https://asiasociety.org/sites/default/files/inline-files/2007_State%20Council_Regulations%20on%20Open%20Government%20Information%20of%20the%20People%27s%20Republic%20of%20China_C%26E_0.pdf
23. Банисар Д. Свобода информации в мире. 2006 год: Общий обзор законодательства по доступу к правительственной информации в мире // Privacy International // URL: <http://www.privacyinternational.org/foi/foisurvey2006rus.pdf>
24. O'zbekiston Respublikasi xalqaro shartnomalari to'plami, 2008-y., 3-4-son // URL: <https://lex.uz/docs/-1461329>
25. Emergency Planning and Community Right-to-Know Act // URL: <https://www.epa.gov/epcra>
26. Qarang: Доклад конференции Организации Объединенных Наций по проблемам окружающей человека среде, Стокгольм, 5-16 июня 1972 года (издание Организации Объединенных Наций, в продаже под № R.73. II. A. 14), глава 1. // URL: https://www.un.org/ru/documents/decl_conv/declarations/riodecl.shtml
27. URL: https://www.un.org/ru/documents/decl_conv/conventions/orhus.shtml
28. Qarang: URL: <https://eco.gov.uz/en/site/news?id=3271>
29. Ayni damda O'zbekiston Espo konvensiyasi, SEB Protokoli va Orxus konvensiyasiga a'zo emas, biroq ushbu xalqaro instrumentlarga a'zo bo'lishning maqsadga muvofiqligini ko'rib chiqyapti. Orxus konvensiyasi mohiyati 2030-yilgacha bo'lgan davrda barqaror rivojlanish hamda atrof-muhit masalalariga doir qarorlar qabul qilishda keng jamoatchilikni samarali jalb etishga qaratilgan.
30. URL: <https://legalclinic.uz/tpost/u8ed1pju91-orxus-konvensiyasi-atrof-muhit-togrisida>
31. Qarang: URL: <https://www.washingtontimes.com/news/2020/mar/27/un-chief-says-misinformation-about-covid-19-is-new/>

SCIENCEPROBLEMS.UZ

**ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ
ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ**

№ 11 (4) – 2024

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

**Ижтимоий-гуманитар фанларнинг
долзарб муаммолари**” электрон
журнали 2020 йил 6 август куни 1368-
сонли гувоҳнома билан давлат
рўйхатига олинган.

Муассис: “SCIENCEPROBLEMS TEAM”
масъулияти чекланган жамияти

Таҳририят манзили:

100070. Тошкент шаҳри, Яккасарой
тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-
уй. Электрон манзил:

scienceproblems.uz@gmail.com

Боғланиш учун телефонлар:

(99) 602-09-84 (telegram).